



TARBIYA FANI ORQALI O'QUVCHILARNING FAOLLIGINI OSHIRISH

Sherikbayeva Durdona Bahodir qizi

ANNOTATSIYA: *Ushbu tezisda Tarbiya fanining o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Ishda darslarni amaliy va qiziqarli usullar bilan tashkil etish, guruh ishlari, rolli o'yinlar va interaktiv mashg'ulotlarning o'quvchilarga foydasi ko'rsatildi. Shuningdek, oila va jamoatchilikning ta'lim jarayoniga ta'siri va o'quvchilarning faolligini oshirish usullari muhokama qilindi. Tezis Tarbiya fanini samarali olib borish orqali yoshlarni mas'uliyatli, faol va jamiyatga foydali shaxslar sifatida tarbiyalash mumkinligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Tarbiya fani, ijtimoiy faollik, o'quvchi, jamoaviy ish, mas'uliyat.*

АННОТАЦИЯ: *В данном тезисе научно-педагогически анализируется роль учебного предмета «Тарбия» в формировании и развитии социальной активности учащихся. В работе раскрывается значение организации учебного процесса на основе практико-ориентированных, интересных и интерактивных методов обучения. Особое внимание уделяется групповым формам работы, ролевым играм, дискуссиям и интерактивным занятиям, а также их влиянию на повышение активности учащихся. Кроме того, рассматривается роль семьи, махалли и общественности в воспитательном процессе, а также их социально-педагогическое влияние на образовательную среду. В тезисе обосновывается, что эффективная, системная и современная организация преподавания предмета «Тарбия» способствует формированию у учащихся социальной активности, гражданской ответственности, самостоятельного мышления, навыков сотрудничества и активного участия в общественной жизни. В результате подчеркивается возможность воспитания молодежи не только как образованных, но и как активных,*



ответственных и социально значимых личностей, способных вносить вклад в развитие общества.

Ключевые слова: предмет «Тарбия», социальная активность, учащийся, коллективная деятельность, интерактивное обучение, ответственность, общество, гражданская позиция.

ABSTRACT: *This thesis analyzes the role of the Education (Tarbiya) subject in enhancing students' social activity. The study highlights the benefits of organizing lessons using practical and engaging methods, including group work, role-playing, and interactive activities. It also discusses the influence of family and the community on the educational process and explores methods to increase student engagement. The thesis demonstrates that effectively teaching the Education subject can help develop young people into responsible, active, and socially valuable individuals.*

Keywords: *Education subject, social activity, student, teamwork, responsibility.*

Hozirgi vaqtda jamiyatga faqat bilimli emas, atrofidagi voqealarga ham e'tiborli bo'lgan, o'z fikriga ega va jamoat ishlarida faol qatnashadigan yoshlar kerak. Shu sababdan ham ta'lim dargohlarida o'qitilayotgan "Tarbiya" fani o'quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirishda juda muhimdir. Bu fan orqali ularni jamiyatda o'z o'rnini topishga, boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo'lishga va mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik o'quvchilar jamoaviy ishlarda kam qatnashadi, tashabbus ko'rsatmaydi, faolligi past bo'ladi. Qaysidir ma'noda buning sababi, darslarda faqat nazariy ma'lumotlarga urg'u berilishi va amaliy mashg'ulotlarning yetarli darajada bo'lmasligi bo'lishi mumkin. Shuningdek, darslar o'quvchilarning yoshiga va qiziqishiga mos keladigan metodlar bilan yetarli darajada ishlanmaydi. Bu muommuolar bora-bora o'quvchilarning ijtimoiy faolligini pasayishiga sabab bo'ladi. O'z navbatida "Buning oldini olish uchun nima qilishimiz kerak?" degan savol tug'iladi. O'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun Tarbiya darslarini amaliy va qiziqarli shaklda olib boorish juda ham muhimdir.



Misol uchun, darslarda guruh ishlari, bahs-munozaralar, har xil rolli o'yinlar va kichik loyihalar qo'llanilishi o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Bunday mashg'ulotlar ularni mustaqil fikrlashga, qaror chiqarishga, o'z fikrini erkin aytishga va jamoa bilan birga ishlashga o'rgatadi.

Tarbiya fanini darslarda kundalik hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash ham foydali. Misol uchun, maktabdagi kichik loyihalar, ijtimoiy aksiyalar yoki maktab hayotiga oid bo'lgan mas'uliyatli vazifalar o'quvchilarni faol bo'lishlariga undaydi. Shu orqali ular yetakchilik, mas'uliyat va boshqalar bilan hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantira oladi. Oila, mahalla, jamiyat ham o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Tarbiya fanida o'quvchilarni faqat nazariy bilim bilan cheklamasdan, ularni jamoat ishlariga, mahalliy va oilaviy tadbirlarga ham jalb qilib turish kerak. Shu yo'l bilan ularning fuqarolik mas'uliyatini va jamiyatdagi rolini anglash qobiliyati rivojlanadi..

O'qituvchilar darsni shunday tashkil qilishi kerakki, har bir o'quvchi o'z fikrini bildirsa olsun, tashabbus ko'rsatsin va guruhga foydali hissa qo'shsin. Individual yondashuv va muntazam muloqot o'quvchilarni rag'batlantiradi va ularning qiziqishini oshiradi. Tarbiya fanida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ham o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib kelgan bir paytda, dars jarayonlarida ham raqamli vositalardan samarali foydalanish zarur. Masalan, interaktiv taqdimotlar, videoroliklar, onlayn platformalar, virtual munozaralar va ta'limiy loyihalar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bunday vositalar orqali o'quvchilar faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllanadi. Ular axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini egallay boshlaydi. Bu esa ijtimoiy faollikning muhim asoslaridan biri bo'lgan mustaqil fikrlash va ongli pozitsiyaga ega bo'lish jarayonini rivojlantiradi.

Shuningdek, Tarbiya fanida muammoli vaziyatlar asosida darslarni tashkil etish ham samarali hisoblanadi. O'quvchilarga hayotiy muammolarni taqdim etish



va ularni birgalikda hal qilishga yo'naltirish orqali ularda ijtimoiy mas'uliyat hissi kuchayadi. Masalan, jamiyatdagi muammolar, ekologik masalalar, ijtimoiy tenglik, yordamga muhtoj qatlamlarga ko'mak berish kabi mavzular asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda befarqlikni kamaytiradi, hamdardlik, insonparvarlik va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Bunday mashg'ulotlar orqali o'quvchilar jamiyat muammolariga shunchaki tomoshabin sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida yondashishni o'rganadi.

Tarbiya fanining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy namunasiga ham bog'liq. O'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyaviy namuna bo'lishi lozim. Uning muomala madaniyati, adolatlilik, mas'uliyatlilik, o'quvchilarga bo'lgan munosabati bevosita tarbiya jarayoniga ta'sir qiladi. O'quvchilar ko'pincha eshitgan gapidan ko'ra ko'rgan namunasi orqali ko'proq o'rganadi. Shu sababli o'qituvchi shaxsiy xulqi, jamiyatga bo'lgan munosabati va ijtimoiy faolligi bilan o'quvchilar uchun ibrat bo'lishi muhimdir. Bu esa Tarbiya fanining faqat darslik doirasida emas, balki real hayotiy tarbiya vositasiga aylanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Tarbiya fanida uzluksizlik tamoyili ham muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, tarbiyaviy jarayon faqat maktab bilan cheklanmasdan, oila, mahalla va jamiyat bilan uzviy bog'liq holda olib borilishi lozim. Agar maktabda berilayotgan tarbiya oiladagi muhit bilan mos kelmasa, kutilgan natijaga erishish qiyin bo'ladi. Shu sababli ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, tarbiyaviy tadbirlarni birgalikda tashkil etish, umumiy maqsad va qadriyatlar asosida ish olib borish muhimdir. Bu hamkorlik o'quvchilarda barqaror ijtimoiy qarashlar va sog'lom dunyoqarash shakllanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Tarbiya fanini samarali tashkil etish orqali o'quvchilarda ijtimoiy faollik, fuqarolik mas'uliyati, jamiyatga foydali bo'lish istagi, tashabbuskorlik va yetakchilik sifatlarini rivojlantirish mumkin. Bu esa nafaqat alohida shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim omil



hisoblanadi. Chunki ijtimoiy faol, ongli, mas'uliyatli yoshlar jamiyatning barqaror rivojlanishida tayanch kuch bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilar ekanmiz, Tarbiya fani o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishda juda katta ahamiyatga ega. Agar darslar amaliy mashg'ulotlar, guruh ishlari, bahs-munozaralar va interaktiv usullar bilan olib borilsa, o'quvchilar jamiyat hayotida faol ishtirok etishni o'rganadi, mas'uliyat hissi shakllanadi va ular kelajakda yetuk shaxslar bo'lib yetishadi. Tarbiya fani o'quvchilarda hamkorlik, qaror qabul qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli maktablarda Tarbiya fanining mazmuni va metodikasi muntazam yangilanib, o'quvchilarning yoshiga, qiziqishlariga va zamonaviy pedagogik talablariga moslashtirilishi zarur. Bundan tashqari, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishda oila va jamoatchilik ham faol ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, Tarbiya fani orqali yoshlarni nafaqat bilimli, balki faol, mas'uliyatli va jamiyatga foydali shaxslar sifatida tarbiyalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nashriyoti, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. "Tarbiya" fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'quv dasturi. — Toshkent, 2022.
3. Karimova D.Sh. Tarbiya fanini o'qitish metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2022.
4. Xolmatova M.A. O'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishning pedagogik asoslari. — Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2021.
5. Abduqodirov A.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi. "Maktablarda tarbiyaviy ishlar". <https://www.edu.uz/uz/maktab/tarbiyaviy-ishlar>